

**UMUMTA'LIM MAKTABLARDA
SIFATLI DARS BERISH USULLARI**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Informatika va aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi

O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi

fizika astronomiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Yangiboyeva Nilufaroy

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning fizika faniga qiziqishlarini oshirish va dars jarayonlarini sifatli tashkil etish to'g'risida ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: fizika, biofizika, politexnik, predmet.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi o'qitish sifatini oshirishda yuqori malakali pedagog, takomillashtirilgan darslik va o'quv qo'llanmalar, zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari bilan bir qatorda fanga ajratilgan soatlar hajmi ham asosiy omil hisoblanadi. So'nggi yillarda ilm-fanga, ustoz-murabbiylarga e'tibor qaratilayotgan shunday zamonda biz bo'lajak o'qituvchilardan yangi zamonga yangicha qarash, yondashish va texnologiyalar bilan o'quvchilar ongiga, qalbiga kirib borish talab qilinarkan, shu oliy maqsad ila qadam tashlashimiz lozim.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish uchun ajratilgan soatlar hajmi keskin kamayib ketayotganini kuzatish mumkin. Masalan, akademik litseylarga yuborilgan "O'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlari" hamda "Namunaviy o'quv rejalari"da fizika predmeti o'quv kursi uchun ajratilgan soatlar miqdori sezilarli kamaygan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi va unda fizika sohasidagi ta'lim sifatini tubdan oshirishga alohida e'tibor berilgani barcha fizika fani o'qituvchilari uchun quvonarli voqea bo'ldi.

Fizika - ancha murakkab fanlardan biri. Uning mavzularini o'quvchilarga tushuntirish, laboratoriya mashg'ulotlarini o'z maromida o'tkazib, o'quvchilarga qiziqarli tarzda yetkazib berish, ularni fanga qiziqtirish o'qituvchilardan katta mahorat talab qiladi. Albatta buning uchun o'qituvchi eng maqbul tuzilgan o'quv dasturi bilan ishlashi kerak. Eng asosiysi o'qituvchi o'quvchilarda bu fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagog avvalo nutqi ravon, xalq tili boyligi va tasvir vositalarini, adabiy til uslub va me'yorini to'la egallagan bo'lishi zarur. O'qituvchilik kasbiga xos bo'lgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob shakllantiradi. Pedagogik odob o'qituvchining yuksak kasbiy fazilatidir. U o'qituvchining sabotli bo'lishi, o'z hissiyatini idora qila olishi, o'quvchilarga pedagogik ta'sir o'tkazish vosita va me'yorini belgilashi va aniqlashiga yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchigina sinfda mo'tadil psixologik iqlim o'rnatiladi, o'quvchilar qalbiga tez yo'l topa oladi.

Pedagogik taraqqiyotning samarali bo'lishi o'qituvchidan quyidagi qobiliyat turlarini talab qiladi:

1. Bilish qobiliyati
2. Tushuntira olish qobiliyati
3. Kuzatuvchanlik qobiliyati
4. Nutq qobiliyati
5. Tashkilotchilik qobiliyati
6. To'g'ri muomala qilish qobiliyati
7. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati
8. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati

Tashabbuskor va g'ayratli o'qituvchi bolalarni o'z orqasidan ergashtira oladi.

"Fizika" fani 6-9-sinflarda haftasiga 2 soatdan o'qitiladi. 6-sinfdan o'quvchilarga fizik hodisalar va kattaliklar haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. Bu bilan o'quvchilarni fizikaga qiziqtiriladi, fizika fani haqida dastlabki tasavvur hosil qilinadi, tevarak-atrofdagi fizik hodisalarning mohiyatini elementar tarzda tushuntirish orqali ilmiy dunyoqarashlari shakllantiriladi.

Fizika fani o'quvchilar qalbiga oson kirib borishi, ularning hotirasidan mustahkam o'rin olishida jonli misollar, hayotiy taqqoslar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning fizika faniga qiziqtirishning bir-necha usullari mavjud. Masalan, fizikaning boshlang'ich kursida o'quvchilarni qiziqishi va yaxshi esda qolishi uchun turli xil xalq ertaklaridan, multfilmlardan foydalaninish yaxshi samara beradi. Masalan, 6-sinfdagi boshlang'ich tushunchalarda moddiy nuqta, trayektoriya, yo'l, vaqt va tezlik kabi kattaliklarni tushuntirishda o'quvchilarni o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan "Bo'g'irsoq" ertagi orqali qiziqtirish mumkin. O'rmon tomon yo'l olgan bo'g'irsoq trayektoriya orqali o'rmon yo'lagidan yurib, yo'lida har xil hayvonlarga duch keladi

Bo'g'irsoq esa qo'shiq aytib berib, vaqtdan yutadi. Yoshlik paytimizdagi eng sevimli ertagimiz bo'lgan "Sholg'om" ertagidagi hodisalar- kuch, og'irlik kuchi, ishqalanish kuchi, tortishish kuchi haqidagi mavzularda foydalanish mumkin.

Fizikani o'rganishda o'quvchilarga biofizikaga oid materiallardan ham foydalanish mumkin. Biofizika elementlarini o'quvchilarga o'rgatishda o'qitishning turli formalaridan foydalanish mumkin: dars, ekskursiya, amaliy ish va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish faoliyati, referatlar tayyorlashi va boshqalar. Lekin biofizikaga oid materialni ko'pincha darsdan foydalanish yaxshi natija beradi.

Fizika darslarining boshida shunday tajribalarni namoyish etish kerakki, ular oddiy bo'lsa-da, boshlang'ich nuqta bo'lsin. Ularda ko'rgan hodisalar, keyinchalik boshqalarini tushuntirish uchun asos bo'ladi.

Fizikadan ekskursiyalar o'tkazish metodikasi bir qator tadqiqotlarda o'z aksini topadi. O'quvchilarning fizikadan olgan bilimlari sifatini yaxshilash, ularni kasbga yo'llash uchun uyushtiriladigan ekskursiyalar yaxshi natija beradi. Yana o'quvchilarni fizika faniga qiziqtirishda fizika honasining jihozlanganligi, kompyuter sinflarining mavjudligi, laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish uchun barcha jihozlarning yetarliligiga muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana maktabda o'quvchilarni fizika faniga qiziqtirishda tatbiqiy fizika hamda

fanlararo bog'lanishlarning ahamiyati katta. Shu munosabat bilan maktabda biofizika elementlarining kiritilishi eng avval o'quvchilarda fizika predmetlarini chuqur va keng o'rganishlarida zamin yaratadi, fanlararo aloqadorlikni jonlantiradi, o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, uni ongli ravishda tanlash imkoniyatlarini yaratadi, politexnik ta'limni yanada kuchaytiradi. Biofizika elementlarini fizika kursida hamda boshqa predmet materiallari bilan bog'lab o'qitish va tarbiya jarayonlarida, samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning har tomonlama to'liq va mustahkam bilim olishlariga katta imkoniyat yaratib berdi.

Fizikaning tabiat sirlarini ochishdagi fundamental ahamiyatini va uning qonunlarini hozirgi zamon texnologiyasining asosini tashkil qilganligi hamda fizika sohasidagi bilimlar kelajakda jamiyat taraqqiyoti uchun benihoya katta ahamiyatga ega. Fizika o'quv predmeti sifatida shakllantirish uchun yetarli darajada imkoniyatlarga ega. Bu o'quv predmetini barcha texnik qurilmalarning asosi sifatida namoyon bo'lishi, egallagan bilimlarining hayotta qo'llash imkoniyatlarning ko'pligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, fizikani o'rganish jarayonida o'quvchi bilishning barcha bosqichlari (kuzatish, gipoteza, tajriba o'tkazish, mushohada qilish va natijalarni umumlashtirish)da o'tkaziladi.

Bugungi kunda fizika fanini o'qitishda ayrim muammolarni hal qilish maqsadga muvofiq. Jumladan, qaror ijrosini amalda ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-11-sinflari, akademik litseylar va universitetlarda fizika fanini o'qitish uchun ajratilgan o'quv soatlari miqdorini qayta ko'rib chiqish zarur. Fizika fanini umumta'lim maktablarida haftasiga 3 soatdan, ixtisoslashgan maktablarda haftasiga 4 soatdan, akademik litseylarda 2 o'quv yili davomida haftasiga 2-3 soatdan, oliy ta'lim muassasalarida 2 o'quv yili davomida haftasiga 6-8 soatdan o'qitish kerak.

Xulosa qilib aytganda, fan-texnika taraqqiyoti natijasida, fizika fani ozchil rivojlanib borayotgan shu asrimizda biz yangiliklar yaratishimiz kerak bo'ladi. Shu munosabat bilan o'quv tarbiya jarayonining darajasini ancha oshirish zarurati tug'ildi. Yoshlarga, umumkasbiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning fan asoslarini chuqur egallashini ta'monlash, ularga muhabbat va uning kelajagi uchun o'zining

hissasini qo‘shishga tayyor turadigan va komil inson ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, shu bilan birga mavzuning insoniyat hayotidagi ro‘lini o‘quvchilarga yetkazishdan iborat

Ilm-fanga, ustoz-murabbiylarga e‘tibor qaratilayotgan shunday zamonda biz bo‘lajak o‘qituvchilardan yangi zamonga yangicha qarash, yondashish va texnologiyalar bilan o‘quvchilar ongiga, qalbiga kirib borish talab qilinarkan, shu oliy maqsad ila qadam tashlashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ya. I. Perelman "Qiziqarli fizika" Toshkent 2009-yil.
2. Tolipov O‘ "Usmonboyeva M. Pedagogika texnologiya: nazariy va amaliyot.
3. K. Tursunmetov " Ma‘lumotnoma" Toshkent 2007-yil..